



“O'zvagonta'mir» AJ  
Kuzatuv kengashi yig'ilishida  
“TASDIQLANGAN”  
2021 yil 30-noyabrdagi  
bayonnoma

**“O'ZVAGONTA'MIR”  
AKSIYADORLIK JAMIYATINING  
2022 yil uchun  
RIVOJLANISH  
BIZNES REJASI**

**Toshkent – 2021 yil**

---



## MUDARIJA

<b>Qisqa axborot ma'lumot .....</b>	<b>3</b>
<b>KIRISH .....</b>	<b>4</b>
<b>1. UMUMIY QISM .....</b>	<b>5</b>
1.1. Xulosa .....	5
1.2. Jamiyat tavsifi .....	7
1.3. Ko'rsatilayotgan xizmatlar tavsifi .....	15
1.4. Ishlab chiqarish faoliyati .....	17
<b>2. MARKETING TAHLIL VA MARKETING STRATEGIYASI .....</b>	<b>18</b>
2.1. Marketing tahlil .....	18
2.2. Xaridorlar ehtiyojlarini tahlil qilish.....	19
2.3. Raqobatchilar tahlili .....	20
2.4. Marketing strategiyasi .....	22
2.5. Sifat sohasi siyosati va maqsadlari.....	24
<b>3. ISHLAB CHIQRISH REJASI .....</b>	<b>25</b>
3.1. Ishlab chiqarish rejasi .....	25
3.2. Narxlar.....	27
3.3. Ishlab chiqarish omillari .....	28
3.4. Mehnat haqi.....	28
<b>4. MOLIYAVIY REJA.....</b>	<b>29</b>
4.1. Ishlab chiqarish faoliyati to'g'risidagi hisobot.....	29
4.2. Foyda va zararlar haqida hisobot.....	30
4.3. Jamiyatning moliyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari.....	33
<b>5. XAVFSIZLIK TEXNIKASI, MEHNAT MUHOFAZASINI HIMOYA QILISH POYEZDLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA QARATILGAN CHORA- TADBIRLAR.....</b>	<b>35</b>
5.1. Xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnatni muhofaza qilish.....	35
5.2. Poyezdlar harakatlanishi xavfsizligi va tashilayotgan yuklar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar.....	36



## QISQA AXBOROT MA'LUMOTLAR

<b>Tashkilot nomi</b>	<b>“O'zvagonta'mir” aksiyadorlik jamiyati</b>
Mulkchilik shakli	Aksiyadorlik jamiyati
Idoraviy taaluqliligi	«O'zbekiston temir yo'llari» AJ
Ustav fondi	2 968 227 000 ming so'm: - “O'zbekiston temir yo'llari» AJ – 90 % - 2 671 404 ming so'm, - Mehnat jamoasi – 10 % - 296 823 ming so'm
Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana va raqami	18.09.2002 yildagi 1201 sonli va 12.12.2002 yildagi 1527 sonli o'zgartirilgan
Savdo litsenziyasi	28.11.2006 yildagi YC 002851 sonli
Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ	Toshkent shahri Hamza tumani hokimining qarori
Asosiy faoliyat turlari	Yuk vagonlarini depo va mukammal ta'miri, barcha turdagi yuk vagonlarini mukammal ta'mirlash bilan xizmat muddatini uzaytirish, yo'lovchi vagonlarini depo ta'miri va TO-3
Mahsulotlarni sotishdan tushgan sof tushum (xizmatlar)	2020 yil – 50 339 107 ming so'm, 2021 yilning 9 oyi – 39 782 929 ming so'm
Ishchi xodimlar	Ro'yxat bo'yicha son: 2020 yil – 763 kishi (01.01.2021 yil holatiga ko'ra) 2021 yilning 9 oyi – 752 kishi (01.10.2021 yil holatiga ko'ra)
Manzil va bank rekvizitlari	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Farg'ona yo'li 3-chi berk ko'chasi, 163 uy O'zSQB Yashnobod filialidagi Hisob raqami 20210000904128872001 Bank kodi 00432 STIR 203661294
Farmoyish beruvchi hujjatlarga imzo chekish huquqiga ega shaxslar	Bosh direktor – Sh.X. Atadjanov Moliya bo'limi boshlig'i – bosh buxgalter – M.S. Saydabarov
Tashkilot telefoni	Tel: +998 (95) 143 98 03



## KIRISH

2022 yil biznes-rejasi “O'zvagonta'mir” AJning barcha turdagi vagonlarni ta'mirlash bo'yicha Respublika bozoridagi faoliyatini davom ettirishini belgilaydi. Ushbu biznes - rejaning maqsadi yuk va yo'lovchilarni temir yo'l tizimida o'z manzillariga xavfsiz etkazilishiga bevosita ta'sir ko'rsatish uchun yuk va yo'lovchilarini tashish vagonlarini sifatli ta'mirlashdan iborat.

**Biznes-rejaning asosiy maqsadi** - 2022 yilda erishish kerak bo'lgan maqsadlarni aniqlash, shuningdek, jamiyat rivojlanishining belgilangan strategik maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar tizimini va aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Ushbu biznes-reja doirasida qabul qilingan asosiy strategiya shundan iboratki, “O'zvagonta'mir” AJ bozorga iqtisodiyoti bo'yicha yo'naltirilgan biznes, korxonada sifatida iloji boricha samarali ishlaydi.

Bu shuni anglatadiki, “O'zvagonta'mir” AJ bozorda o'z maqsadlarini belgilaydi va o'z xizmatlaridan shunday foydalanadiki, texnologik jarayonda zarur bo'lgan harakatlar yordamida ko'zlangan maqsadlarga erishadi va o'z biznesini ishlab chiqarish faoliyati jarayonida kelib chiqadigan xavflardan himoya qiladi. Jamiyat imkoniyatlariga bo'lgan ehtiyojlar, birinchi navbatda, maqsadli bozorlar uchun xizmatlarning barcha turlarini taqdim etishni ta'minlaydigan tarzda ishlab chiqiladi va muvofiqlashtiriladi.

**Jamiyat strategiyasi:** “O'zvagonta'mir” AJ rahbariyati o'z mijozlariga zamonaviy talablarga muvofiq, sifatli va turli xildagi xizmatlar ko'rsatadi. Doimiy rivojlanayotgan, yuqori daromadli korxonada barqaror ishlashini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Bu maqsadga quyidagi strategik yo'nalish orqali erishiladi:

- mijozlar ehtiyojlari va talablarini eng foydali natija bilan qondirishning pirovard maqsadiga, jamiyat ko'rsatadigan xizmatlar uchun yuqori raqobatni ta'minlashga qaratilgan kuchli marketing yondashuvlarini yaratish;

- texnik vositalardan oqilona va samarali foydalanish hamda zamonaviy mexanizatsiyalash vositalari va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ta'mirlash sifatini oshirish, turli xildagi sifatli xizmatlar ko'rsatish orqali ish sifatini yaxshilash.

### Maqsad va vazifalar

1. Xaridorlarning ehtiyojlarini qoniqtirish darajasini oshirish.
2. Rentabellik darajasini oshirish.
3. Mulkiy bazani qisqartirish.
4. Soliqlarni qisqartirish.
5. Mijozlar bazasini kengaytirish.
6. Uzoq muddatli shartnomalar tuzish.
7. “O'zbekiston temir yo'llari” AJ bilan aniq munosabatlarni belgilash.
8. Xalqaro standartlarga muvofiq auditdan o'tgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash.
9. Biznes-rejani takomillashtirish.

“O'zvagonta'mir” AJ rahbariyatining bevosita ishtirokida korxonada mutaxassislari tomonidan quyidagi ishlab chiqilgan va tuzilgan bo'limlar tadbiriq etiladi.



## 1. UMUMIY QISM

### 1.1. Xulosa

“O'zvagonta'mir” AJ, uning tarkibiy bo'linmalari yarim asrlik tarixga ega bo'lsada, yangi tuzilmada o'n sakkiz yildan beri faoliyat yuritadi. Mazkur rejada jamiyatimizning 2022 yilda daromadlarning o'sishini ta'minlash maqsadida potentsial mijozlarni jalb qilish bo'yicha ishlarini davom ettirish haqida so'z yuritiladi va biznesni kengaytirishning asosiy vazifalari belgilab beriladi. Jamiyatning kundalik ishi jamiyatning o'z mablag'lari hisobidan ta'minlanadi. Biznes-reja chet ellik investorlarni jamiyatning imkoniyatlari, muammolari va vazifalari bilan tanishtirish maqsadida tuzilgan.

1. Bugungi kunga kelib respublikada investitsiya faoliyatiga poydevor qo'yish uchun qulay iqtisodiy va siyosiy sharoitlar yaratilgan. “O'zvagonta'mir” AJ bozor islohotlarini amalga oshirishda oldinga intilish imkoniyatlari yaratildi.

2. Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida aniq ishlovchi qonun mavjud, qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirildi. Endi faoliyat davlat va xususiy sektor muassasalari tomonidan tegishli me'yorlarni qo'llash va ularga amal qilishni ta'minlashga bog'liq.

3. “O'zvagonta'mir” AJ shunday zarur bo'lgan parametrlarga egaki, ularning asosida biznes hamkor va potentsial investor hamkorning ishonchliligi, unga bo'lgan ishonch haqida o'z taassurotini shakllantiradi, ya'ni:

- ilg'orlik;
- kerakli miqdordagi resurslarning mavjudligi;
- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- sohaning etakchilaridan biri;
- murakkab muammolarni hal qilish qobiliyati;
- xizmatlar sifatini yaxshilashga intilish;
- ishonchlilik;
- keng bilimga egalik.

“O'zvagonta'mir” aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 noyabrdagi 378-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasining 2002 yil 28 iyundagi 184 KPO-sonli va 2002 yil 29 noyabrdagi 124-P-sonli buyrug'iga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 3 martdagi 108-sonli qaroriga binoan tashkil etilgan “O'ZVAGONTA'MIR” yuk vagonlarini ta'mirlash unitar korxonasi dan vagon xo'jaligi korxonalarini birlashtirish orqali qayta tuzilgan.

Jamiyat 2003 yil 1-yanvardan boshlab aksiyadorlik jamiyati sifatida faoliyat yuritadi.

“O'zvagonta'mir” AJ – xo'jalik hisobiga asosan faoliyat yurituvchi jamiyati bo'lib, uning ustav kapitali ma'lum miqdordagi aksiyalarga bo'lingan. Jamiyatning ustaviga binoan aksiyadorlik jamiyat a'zolari o'z aksiyalarini ushbu jamiyatning boshqa aksiyadorlarining roziligisiz sotishi yoki birovga o'tkazishi mumkin.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 28 oktyabrdagi 286 -sonli qaroriga muvofiq jamiyatning 39 foiz davlat aktivlari “O'zbekiston temir yo'llari” AJ ustav fondiga o'tkazildi. “O'zbekiston temir yo'llari” AJning davlat aktivlariga o'tkazilgandan keyin jamiyatning ustav fondidagi ulushi 90 foiz ya'ni 2 671 404 donani tashkil etdi.



- 10 foiz ya'ni 296 823 dona aksiyalar mehnat jamoasiga tegishli.

Aksiyaning nominal qiymati - 1000 so'm.

Jamiyatning maqsadi, mijozlar bilan yaqindan ishlash va ularning ehtiyojlarini qondirishdir. Mijozlar bilan yaqindan hamkorlikda ishlab, daromadga kam miqdorda bo'lsa ham ta'sir qiluvchi bozordagi munosabatlarga darhol javob beradi. Jamiyatning vazifasi - asosiy geografik mintaqalarda faoliyatini kengaytirish, u erda ishonchli va amalda sinalgan marketing usulini qo'llagan holda yuk va yo'lovchi tashish vagonlarga ta'mirlash xizmatlarini ko'rsatib, jamiyatning daromadini oshirishi mumkin.

“O'zvagonta'mir” AJ o'z tarkibida beshta vagon depolarini birlashtirdi. “O'zbekiston temir yo'llari” AJ boshqaruv raisining 2011 yil 7 yanvardagi 10-N-sonli buyrug'iga muvofiq, Qo'ng'iro't va Termiz vagon depolarining mulk majmualari o'rnatilgan tartibda Qo'ng'iro't va Termiz MTU'larga ijaraga berildi.

O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonunining yangi tahririga muvofiq, “O'zvagonta'mir” AJ ustavining va jamiyat faoliyati qoidalarining yangi tahrirlari tasdiqlandi, jamiyat nomiga o'zgartirishlar kiritildi.

## 1-jadval

### Jamiyat tarkibiy bo'linmalarining joylashuvi

	Manzil	Tel., Faks, e-mail
Boshqaruv apparati	O'zR, Toshkent sh. 100073, Yashnobod tumani, Farg'ona yo'li, 3-berk ko'chasi, 163 uy	(95) 143-98-03 (tel.) e-mail: <a href="mailto:uzvagontamir@railway.uz">uzvagontamir@railway.uz</a>
Xovos vagon deposi	O'zR, Sirdaryo viloyati, Xovos tumani, 108200, Depovskaya ko'cha, 4 uy	(36-74) 74-62-62, e-mail: <a href="mailto:vchd-3@railway.uz">vchd-3@railway.uz</a>
Andijon vagon deposi	O'zR, Andijon sh., 110016, Qayrag'och tagi ko'cha, 119a	(37-42) 292-22-22, e-mail: <a href="mailto:vchd-5@railway.uz">vchd-5@railway.uz</a>
Samarqand vagon deposi	O'zR, Samarqand sh., 103002, Go'ro'gli ko'cha, 11	(36-62) 229-76-84 e-mail: <a href="mailto:vchd-6@railway.uz">vchd-6@railway.uz</a>
Qo'ng'iro't vagon deposi	O'zR., Qo'ng'iro't sh., 143800, Ermagambetov ko'cha-1	(361) 312-27-20 e-mail: <a href="mailto:qo'ng'iro't@uzvr.com">qo'ng'iro't@uzvr.com</a>
Termiz vagon deposi	O'zR., Termez sh., 733500 Sherobod ko'cha-1	(37-624) 22-2-22-20 e-mail: <a href="mailto:termez@uzvr.com">termez@uzvr.com</a>

“O'zvagonta'mir” AJ tizimidagi vagon depolarining har biri ma'lum bir geografik mintaqaga xizmat qiladi.



## 1.2. Jamiyat tavsifi

### ***Boshqarish va qarorlar qabul qilish jarayoni***

Boshqaruv apparati biznesning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

### ***Jamiyat boshqaruvi***

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi «O'zvagonta'mir» AJning oliy boshqaruv organi hisoblanadi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi jamiyat ustavida belgilangan muddatlarda, ammo moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

### ***Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlari***

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining mutloq vakolatiga quyidagilar kiradi:

- jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyat ustavini yangi tahrirda tasdiqlash;

- jamiyatni qayta tashkil etish;

- jamiyatni tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

- jamiyat Kuzatuv kengashi son tarkibini belgilash, uning a'zolarini saylash va vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;

- e'lon qilingan aksiyalarning maksimal miqdorini belgilash;

- jamiyat ustav fondini ko'paytirish yoki kamaytirish;

- o'z aksiyalarini sotib olish;

- jamiyat Taftish komissiyasi a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish, shuningdek taftish komissiyasi (taftishchi) to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

- majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

- jamiyat yillik hisobotlarini, buxgalteriya balanslarini, foyda va zarar hisoblarini tasdiqlash, uning foyda va zararlarini taqsimlash;

- ochiq obuna orqali joylashtirilgan taqdirda, aksiyadorning aksiyalarga konvertatsiya qilinadigan qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha ustuvor huquqi qo'llanilmasligi to'g'risida qaror qabul qilish;

- umumiy yig'ilish reglamentini tasdiqlash;

- aksiyalarni bo'lish va konsolidatsiyalash;

- yirik bitimlarni tuzish;

- jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari, jamiyatning boshqa boshqaruv organlarida lavozimga ega bo'lgan shaxs, o'z qaramog'idagi (affillangan) shaxs bilan birgalikda jamiyatning yigirma yoki undan ko'proq foiz ovoz beruvchi aksiyalarga ega bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar) manfaatdor bo'lgan bitim tuzish, agar ushbu shaxslar, ularning turmush o'rtoqlari, ota-onalari, bolalari, aka-ukalari, opa-singillari, shuningdek ularning barcha affillangan shaxslari bo'lsa, jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining ko'proq foizi;

- baholash tartibi to'g'risidagi Nizom asosida Kuzatuv kengashi va ijroiya organi



faoliyatiga baho berish;

- qonunchilik va jamiyat ustavida nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal qilish.

Ko'p qarorlar oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Quyidagi masalalar bo'yicha qaror qabul qilish uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ovozlarining to'rt dan uch qismi zarur:

- jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- jamiyatni qayta tashkil etish;
- jamiyatning tugatilishi;
- e'lon qilingan aksiyalarning maksimal miqdorini belgilash;
- boshqa masalalarni hal qilish.

Aksiyadorlik jamiyati faoliyatini umumiy boshqarish kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutloq vakolatiga kiradigan masalalar bundan mustasno.

***Kuzatuv kengashining vakolatlari:***

- jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;
- jamiyat aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga taaluqli hujjatlarni tayyorlash;
- umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxatini tuzish sanasini belgilash, shuningdek, aksiyadorlar umumiy yig'ilishini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq boshqa masalalarni hal qilish;
- aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining ko'rib chiqishiga jamiyat ustaviga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish yoki ustavni yangi tahrirda tasdiqlash, shuningdek majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini tasdiqlash masalalarini kiritish;
- obligatsiyalar va qimmatli qog'ozlarni joylashtirish;
- mulkning bozor qiymatini aniqlash;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda qaror qabul qilish va jamiyat joylashtirgan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish;
- jamiyat ijroiya organini saylash, uning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;
- aksiyadorlik jamiyati nomidan jamiyat bosh direktorini bir yil muddatga yollash to'g'risida mehnat shartnomasi tuzish;
- ijroiya organga to'lanadigan haq va kompensatsiya miqdorini belgilash;
- jamiyat taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdori bo'yicha tavsiyalar berish;
- aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va to'lash tartibi bo'yicha tavsiyalar kiritish;
- jamiyat zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;
- jamiyat boshqaruv organlari faoliyati tartibini belgilovchi hujjatlarni tasdiqlash;
- jamiyat ijro etuvchi organi faoliyatiga taalluqli har qanday hujjatlarga to'siqsiz kirish va ularni Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun ijroiya organdan talab qilish. Olingan hujjatlardan Kuzatuv kengashi va uning a'zolari tomonidan faqatgina





xizmat maqsadlarida foydalaniladi;

- har chorakda jamiyat ijro etuvchi organi rahbarining yillik biznes-rejaning bajarilishi hisobotlarini eshitish va bosh direktor bilan agar ular qo'pol qoidabuzarliklarga yo'l qo'ysa yoki jamiyat yillik biznes-rejasining tasdiqlangan parametrlarni bajarilishi buzilishiga yo'l qo'yilsa shartnomani muddatidan oldin bekor qilish;

- shartnoma shartlarini buzsa, jamiyat bosh direktori bilan shartnomani bekor qilishga;
- jamiyat biznes-rejasini tasdiqlash;
- jamiyat filiallarini yaratish va vakolatxonalarini ochish;
- jamiyat sho'ba va tobe korxonalarini yaratish;

- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8-bobida nazarda tutilgan hollarda, mulkni sotib olish va ajratish bilan bog'liq yirik bitimlar tuzish;

- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobida nazarda tutilgan hollarda, mulkni sotib olish yoki ajratish bilan bog'liq yirik bitimlar tuzish;

- jamiyat Nizomi bilan Kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan boshqa masalalarni hal qilish.

**9 kishidan iborat Kuzatuv kengashi a'zolari tarkibi:**

**2-jadval**

**Jamiyat Kuzatuv Kengashi tarkibi**

<b>F.I.Sh.</b>	<b>Lavozimi</b>
Maxamatov Zafar Ergashboyevich	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Bosh menejer-bosh muhandisi
Ahmedov Ergashboy Botirovich	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Vagon xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i
Zayniddinov Nuriddin Savranbekovich	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Sanoat faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish boshqarmasi bosh muhandisi
Abdurahmonov Kamolitdin Botirovich	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Moliya boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari
Fayziev Javlon Mirmuxsinovich	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Strategik rivojlanish boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari
Molayxonova Gulnora Ansarovna	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Iqtisodiy tahlil va prognozlash boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari
Qodirov Sardor Yulkunovich	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Eletrlashtirish va lokomotiv parkini yangilash loyihalarini amalga oshirish guruhi boshlig'i o'rinbosari
Asqarov Muzaffar Tursunboyevich	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Aksiyadorlar bilan korporativ aloqalarni boshqarish bo'limi boshlig'i
Abduxakimova Nozima Rovshanovna	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ Aksiyadorlar bilan korporativ aloqalar boshqarmasi etakchi mutaxassisi



### **Aksiyadorlik jamiyati bosh direktorining vakolatlari**

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining 2008 yil 18 iyundagi qarori bilan kollegial ijroiya organi yagona ijro organga aylantirilgan. Uning vakolatiga jamiyatning joriy faoliyatini boshqarishning barcha masalalari kiradi, aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashining mutlaq vakolatiga kiradigan masalalar bundan mustasno.

### **3-jadval**

#### **Yagona ijro organi**

<b>F.I.Sh.</b>	<b>Lavozimi</b>	<b>Tug'ilgan yili</b>	<b>Vazifalari</b>	<b>Aksiyalar soni</b>
Atadjanov Shamurat Xangeldiyevich	Bosh direktor	1962	Jamiyatning joriy faoliyatini boshqarish, uni rivojlantirish; jamiyat xizmatlari hajmini va marketingini amalga oshirishni muvofiqlashtirish.	453

#### **Rahbariyat va xodimlar**

Xodimlarning ro'yxatdagi soni 2021 yil 1-yanvar holatiga ko'ra 783 kishini tashkil etdi.

### **4-jadval**

#### **Xodimlarning ro'yxatdagi soni va ish kuchini o'zgarishlari**

<b>№</b>	<b>Xodimlarning soni</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>2020 yil haqiqiy</b>	<b>2021 yilning 9 oyi haqiqiy</b>	<b>2021 yil kutilayotgan</b>
1	1 yanvar holatiga	kishi	783	750	750
2	Yil davomida /9 oy ichida ishga olindi	kishi	55	8	20
3	Bo'shatildi	kishi	113	39	55

#### **Moliyalashtirish**

Nizomda belgilangan vazifalarni bajarish uchun jamiyat 2022 yilda vagonlarni ta'mirlash xizmatini ko'rsatish bo'yicha rejalashtirilgan ish hajmlarini bajarishni, moddiy resurslarni etkazib berishni, shartnomaviy ishni takomillashtirishni, prognoz parametrlari ko'rsatkichlariga va istiqbolli rivojlanish maqsadlariga erishishni, barcha turdagi faoliyatdan olingan foydani samarali ishlatishni, aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirishni, ishlab chiqarishga taalluqli bo'lmagan sarf harajatlarini kamaytirish, boshqaruv tizimini takomillashtirishni ko'zda tutadi.

**Jamiyat tuzilishi**

Jamiyatning boshqaruv tuzilishi yo'nalishli deb tavsiflanadi. Unga quyidagilar mansub:

- xodimlarning o'z va turli vazifalarini bajarishini ta'minlovchi aniq mehnat taqsimoti va umumiy qoidalar va standartlarning qat'iy tizimini o'rnatish;
- boshqaruv darajalari iyerarxialiligi, bunda har bir quyi turuvchi yuqori organga bo'ysunadi va u tomonidan nazorat qilinadi;
- har bir sohada yuqori malakali kadrlarning paydo bo'lishiga olib kelishi kerak bo'lgan aniq mehnat taqsimoti.

Jamiyatning tashkiliy tuzilmasining ijobiy va salbiy tomonlari:

**5-jadval****Jamiyat tuzilishini tahlil qilish**

<b>Ijobiy tomonlar</b>	<b>Salbiy tomonlar</b>
Boshqaruvning birligi tamoyiliga rioya qilish	Malakali rahbarlarning yetishmasligi
Vakolatlarning aniq taqsimlanishi	Mutaxassislar tomonidan o'z vakolatlarini bajarishining sustligi
Eng oddiy tuzilma	Raqamlashtirishning rivojlanmaganligi

2022 yilda Toshkent davlat transport universitetining malaka oshirish kurslarida “Vagonlarni ta'mirlash xizmat ko'rsatkichlarini takomillashtirish, shuningdek, poyezdlar harakati xavfsizligini oshirish” mavzusida ustalar, brigadirlar va jamiyatning muhandis-texnik xodimlari uchun o'qishni tashkil etish rejalashtirilgan. Vagon depolari faoliyatini boshqarish quyidagi rahbarlar tomonidan amalga oshiriladi:

**6-jadval****Tarkibiy bo'linmalar rahbariyati**

<b>Depo nomi</b>	<b>Barpo etilgan yili</b>	<b>Umumiy maydon, ga</b>	<b>Depo boshlig'i F.I.Sh.</b>	<b>Aksiyalar soni</b>	<b>Depo boshlig'ining tug'ilgan yili</b>
Xovos vagon deposi	1936	13,8	Mamadaliyev Djaxongir Xaytaliyevich	32	1976
Andijon vagon deposi	1942	9,13	Umarov Dadajon Yakubjanovich	200	1963
Samarqand vagon deposi	1932	4,0	Buriyev Baxodir Sirojovich	100	1963

“O'zvagonta'mir” AJ vagon depolarida vagonlarni depo ta'miri, mukammal ta'miri, va mukammal ta'mirlash bilan vagonlarning xizmat muddatini uzaytirish ishlari bilan shug'ullanadi. Buning uchun vagonlarni ehtiyot qismlar zaxirasi etarli, barcha vagon depolarida ikki smenali ish tashkillashtirilgan.

XXI asrda intellektual qadriyatlar, yuqori bilim va ta'lim darajasi ustunlik qilmoqda. Jamiyat maqsadlarining amalga oshirishini ta'minlashda oldinga siljishining eng hal qiluvchi

omili - bu inson kapitali, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay oladigan mutaxassislar. Shu maqsadda jamiyat barcha toifalardagi mutaxassislarning malakasini oshirishga katta ahamiyat beradi. 2022 yilda 84 kishining malakasini oshirish rejalashtirilgan.

***Vagon depolarining xususiyatlari:***

Jamiyatning asosiy ishlab chiqarish joylari va ofislari O'zbekiston Respublikasi viloyatlarining Xovos, Andijon, Samarqand shaharlarida joylashgan:

- Xovos vagon deposi - Sirdaryo viloyatida;
- Andijon vagon deposi - Andijon viloyatida;
- Samarqand vagon deposi - Samarqand viloyatida;

**7-jadval**

**Jamiyat bo'linmalarining binolari va sexlari tavsifi**

	Binolar, sexlar maydoni, kv.m	Qurilish koeffisienti	Binolarning tavsifi
Xovos vagon deposi	14191	0,10	G'isht, temir -beton, tomi-shifer, yumshoq, barcha sexlar isitiladi
Andijon vagon deposi	15156	0,17	G'isht, temir -beton, tomi-shifer, yumshoq, ruxlangan, barcha sexlar isitiladi
Samarqand vagon deposi	10800	0,27	G'isht, temir -beton, tomi -shifer, yumshoq, metall, temir, barcha sexlar isitilad
Boshqaruv apparati ofisi	315		Ijaraga olingan xonalar

Ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash nuqtai nazaridan eng muvaffaqiyatli - Xovos, Andijon, Samarqand vagon depolaridagi binolar va ishlab chiqarish sexlari joylashgan.

Sexlarni bitta qurilish majmuasida joylashganligi sababli vagon qismlarini ta'mirlash jarayonlarini ketma-ketligini tezlatadi.

“O'zvagonta'mir” AJning 2020 yil 8 oktyabrdagi 92-sonli buyrug'i bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2018-2019 yillar davrida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk ob'ektlarining yalpi xatlovdan o'tkazish to'g'risida”gi 2016 yil 3 avgustdagi 251-sonli qarorini sifatli va o'z vaqtida bajarish maqsadida, shuningdek “O'zbekiston temir yo'llari” AJ boshqaruvi raisining 2021 yil 9 sentyabr kunidagi 961/1-N-sonli buyrug'i asosida 2022 yilda vagon depolarida mulk mavjudligi xatlovini olib borish uchun, tasdiqlangan jadval-rejasi asosida moliyalashtiriladi.

**Vagon depolarining asosiy ishlab chiqarish bo'limlari va asbob-uskunalari**

*Vagon yig'ish sexi* tegishli bo'limlarda olib boriladigan vagonlarni qismlarga ajratish, ta'mirlash-yig'ish va bo'yash ishlarini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Ishning texnologik jarayonini ta'minlash maqsadida vagon yig'ish sexlari turli mexanizmlar: arava va g'ildirak juftliklarini tashish uchun ko'priksimon va boshqa kranlar, elektrlashtirilgan domkratlar, stavlyuga, payvandlash transformatorlari, pnevmatik asboblar va boshqalar bilan jihozlangan.



*Vagonlarni qisimlarga ajratish va ta'mirlashga tayyorlash bo'limi* rom, kuzov elementlari, yarim ochiq vagonlarning yuk tushirish qopqoqlari va boshqa qismlar bo'yicha ajratish va texnologiya bo'yicha ta'mirlash ishlarini bajarish uchun xizmat qiladi. Ta'mirlash-yig'ish bo'limi yo'llarida ishlarni bajarish uchun ta'mirlash ustaxonalari tashkil etilib, ular kuzov bo'yicha chilangar va duradgorlik ishlari uchun yuk ko'tarish maydonlari, yarim ochiq vagonlarni yuk tushirish qopqoqlarini to'g'rilash uchun presslar va avtoulagich apparatlari, har xil moslama va stendlar, maxsus elektr va pnevmatik asboblardan jihozlangan.

Ish joylarida siqilgan havo sig'imini taqsimlovchi kolonkalar, elektr payvandlash apparatlari va elektr asboblarini quvvatlantirish uchun elektr uzatish yo'llari bilan jihozlangan. Vagonlarni ko'tarish va og'ir qismlarni ko'chirish uchun uchastkalarda 5 va 10 tonnagacha yuk ko'tarish kranlari mavjud.

*Bo'yoq bo'limi* vagonlarni bo'yash va undan so'ng quritish uchun xizmat qiladi.

Arava va g'ildirak juftliklarini ta'mirlash bo'limida quyidagi bo'limlar mavjud: arava, g'ildirak juftliklarini tozalash va yuvish, g'ildiraklar bo'yicha yonuv, elektr payvandlash. Barcha bo'limlar zarur texnologik uskunalardan jihozlangan: elektr payvandlash apparatlari, taqsimlash kolonkalariga ega bo'lgan havo yo'llari, triangellarni, tormoz tyagasi va prujinalarni ta'mirlash va sinovdan o'tkazish stendlari, frezalash dastgohlari, kran-balkalar, defektoskop moslamalari va o'lchash asboblari.

G'ildirak aylansi bo'yicha charxlash uchun asosan ikki xildagi g'ildirak yo'nuv dastgohlari qo'llaniladi: UBB-112 modelidagi Rafamet va Kramatorsk og'ir dastgohlar zavodining (KZTS) 1836A rusumli.

G'ildirak juftliklarini grebenini quyish yo'li bilan eritib qoplash, elektr payvandlash bo'limida amalga oshiriladi. Elektr eritib qoplash ishlari uchun A-482 turidagi ikki yoqli avtomat ishlatiladi. Vagon depolarining g'ildirak-rolak sexlarida, har bir g'ildirak juftligining g'ildirak elementlarini o'lchash va skanerlash natijalari bayonnomasini chiqarib beruvchi USK-4 skaner qurilmasi bo'lgan UD4-T ultratovushli defektoskop-tamograf asosida g'ildirak juftliklarini buzilmas nazorat qilishning zamonaviy texnologiyasi joriy etilgan.

Rolikli podshipnik uchastkasida quyidagi bo'limlar mavjud: qismlarga ajratish, ta'mirlash, butlash va yig'ish. Bo'limlarni joylashtirishda texnologik jarayonning uzluksizligi talablariga rioya qilingan.

Ta'mirlash-butlash bo'limi eskirgan qismlarni ta'mirlash, nosoz uzellarni oldindan ta'mirlanganlarga almashtirish tamoyili bo'yicha vagonlarni tez ta'mirlashni ta'minlash maqsadida, uzellarni to'plash va tekshirish uchun mo'ljallangan. Bo'lim bir nechta bo'linmalardan iborat.

*Avtoulagich nazorat bo'limi* tirkalish mexanizmlidagi avtoulagich boshlari, tortish xomuti, yutish apparatlarni ta'mirlash va yig'ish uchun mo'ljallangan. Bu erda avtoulagich boshlarini ta'mirlash bo'yicha reglamentlanmagan taktli osma konveyerli yo'nalishlar, tortish xomutlarini ta'mirlash bo'yicha yo'nalish tashkil etilgan, yutish apparatlarini ta'mirlash uchun mexanizatsiyalashgan moslamalar, eritib qoplash ishlarini ishlab chiqarish uchun va boshqa anjomlar qo'llaniladi. Tirkalish mexanizmini montaji, defektoskop qilish va yig'ish uchun ish joylari bu pnevmorejimli ixcham stollarga bo'lib, ularga avtoulagich korpusi o'rnatilgan moslama mahkamlangan.

*Slesarlik-mexanika bo'limi* vagonlarning alohida uzellari va qismlarini ta'mirlash, yig'ish va butlash uchun vagonlarning ta'mirlangan qismlarini va o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarga ishlov berishga mo'ljallangan.

*Bo'lim tokarlik-vint kesuvchi*, parmalash, 3 randalash, bolt kesuvchi va gayka kesuvchi



dastgohlari, yuk ko'tarish qobiliyati 5 tonna bo'lgan kran-balka, metall kesish uchun press-qaychi, vtulkalarni presslash uchun va tormoz uzatish qismlarini sinovdan o'tkazish uchun gidravlik press, egiluvchan valli najdakli-silliqlovchi dastgoh, qismlarni magnit defektoskopiya qilish uchun stendi, payvandlash kabinalari, elektr va pnevmatik asbob, qismlarni ajratish va uzellarni yig'ish uchun stollar va dastgoxlar, ta'mirlash, yig'ish va triangellarni sinovdan o'tkazish uchun konveyer bilan jihozlangan.

*Elektr-payvandlash bo'limi* vagon qismlarini, aravalarning eskirgan reszor ustki balkasi, tormoz traversalarini, tormoz dastakli uzatma qismlarini va turli xil valiklarni payvandlash va eritib qoplash uchun ishlatiladi.

Bo'lim A-547R yarim avtomatli yo'nuvchi dastgohi asosida tebranuvchi balkalar va ilgaklarni avtomatik eritib qoplash uchun qurilma hamda kukunli sim bilan eritib qoplash uchun ikki boshli dastgoh, A-580m payvandlash boshlari, tormoz traversalarini avtomatik eritib qoplash uchun qurilma, valiklarni tebranuvchi-yoyli (вибродуговой) eritib qoplash uchun qurilma va boshqa silindrsimon qismlar bilan jihozlanadi. Bu yerda stollar, asboblari, payvandlash apparatlari bilan jihozlangan maxsus kabinalar ham mavjud. Gaz bilan payvandlash ishlari bo'lim yonidagi alohida xonada olib boriladi.

*Temirchilik bo'limi* vagonlarning eskirgan va shikastlangan qismlarini ta'mirlash va deponing xo'jalik ehtiyojlari uchun kerakli qismlar tayorlash uchun mo'ljallangan. Bu erda mayda qismlarni ta'mirtalab qismlarni isitish uchun gaz va elektr pechlari, pnevmatik bolg'alar va temirchilik gornlari o'rnatilgan. Yarim ochiq vagonlarning yuk tushirish qopqoqlari va yon eshiklarini ta'mirlash bo'limi barcha depolarida tashkil etilgan.

*Yog'ochni qayta ishlash sexi* vagon depolarida qismlarni ta'mirlash, arralangan materiallarni quritish va ommaviy ishlov berish uchun barpo etilgan. Vagonlardan yechilgan nosoz eshiklarni, bortlarni ta'mirlash, pol taxtalarini o'rnatish va boshqa ishlar uchun zarur uskunalar, moslamalar o'rnatilgan bo'lib duradgorlik bo'limida amalga oshiriladi.

*Tom yopish bo'limi* vagonlarni ta'mirlash uchun tunukalarni tayyorlash bo'yicha ishlarni bajaradi. Kerakli asboblarni, eng oddiylaridan tashqari, vagon depolar markazlashtirilgan tarzda oladilar, shuning uchun asbob va dastgohlarni muntazam ravshda texnik ko'rikdan o'tkazib turiladi.

Ta'mirlash va ishlab chiqarishining sharoitida jamiyatning uchta vagon deposida rivojlangan hamda vagonlarni ta'mirlash sexi va ta'mirlangan yoki yangi qismlarni yig'ish uchun kerakli moslamalar o'rnatish bo'limlari mavjud.

Vagon depolarining ishlab chiqarish quvvati, pozitsiyalar soni hamda vagonlarni ta'mirlash turiga qarab sarflanadigan vaqtlar hisob-kitob qilinib o'rtacha vagon depolarining ishlab chiqarish quvvati 3890 ta vagonni tashkil etadi.

## 8-jadval

### Jamiyatning texnik vositalari

Bo'linmalar va texnik vositalarning nomi	Miqdori jami
Ta'mirlash joylari (stavlyugalar)	37
Kompressor qurilmalar	13
Rolik uchastkalar	4
Avtotormozlarning nazorat punktlari	5
Avtoulagich nazorat punktlari	5



G'ildirak juftliklarini tozalash va yuvish uchun mashinalar mavjud.

Katta hajmdagi elektr va gaz bilan payvandlash ishlari vagonlarni ta'mirlash sexida, bevosita vagona, aravalar va g'ildiraklar sexida, shuningdek, avtoulagichni ta'mirlash bo'linmalarida amalga oshiriladi. Yassi va silindrsimon qismlar ustida eritib qoplash ishlarni bajarish uchun payvandlashni flyusi ostida va himoyalangan gaz oqimida amalga oshiradigan yarim avtomatik qurilmalar qo'llaniladi.

Yuk tushirish qopqoqlari va metall bortlarni tuzatish maxsus shuning uchun yasalgan moslamalarda (стенд) bajariladi.

Vagonlardan yechiladigan nosoz eshiklar va bortlarni ta'mirlash yordamchi tayyorlov sexida amalga oshiriladi, pol taxtalarini tayyorlash hamda yopiq vagonlar va platformalarni qoplamasi zarur uskunalar o'rnatilgan yog'ochni qayta ishlash sexlarida amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda dastgohlar parki 168 tadan iborat.

## 9-jadval

### Jamiyat dastgohlar parki va asbob-uskunalarining tavsifi

Mexanizmning nomi	Xovos			Andijon			Samarqand			Jami		
	soni	yaroqli	nosoz	soni	yaroqli	nosoz	soni	yaroqli	nosoz	soni	yaroqli	nosoz
G'ildirak tokarlik dastgohlar	2	1	1	1	1		2	2		5	4	1
Qayrovchi dastgohlar	4	2	2	2	2	0	7	6	1	13	10	3
Yog'ochni qayta ishlovchi dastgohlar	4	3	1	4	4		11	10	1	19	17	2
Temirchilik pnevmatik bolg'a	3	1	2	1	1		2	2		6	4	2
Temirchilik isitish pechi	1	1		2	1	1	3	2	1	6	4	2
Payvandlovchi va boshqa agregatlar	11	10	1	16	12	4	15	15	0	42	37	5
Gidravlik va valtsovka qiluvchi press	1	1					1	0	1	2	1	1
Ko'priksimon kran	9	8	1	4	3	1	4	3	1	17	14	3
Portli kran	4	3	1	2	2		2	2		8	7	1
<b>Metall kesuvchi asbob-uskuna</b>												
Tokarlik dastgohlari	4	3	1	5	3	2	5	4	1	14	10	4
Parmalash dastgohlari	8	8		3	3		4	4		15	15	
Bolt va gayka kesuvchi dastgohlar				1	1		1	1		2	2	
Ko'ndalang randalash dastgohi				1	0	1	1	1		2	1	1
Frezali dastgohi	3	3		3	3		4	3	1	10	9	1
Press qaychi va gilyotina	1	0	1	2	2		4	3	1	7	5	2

Ixtisoslashgan tashkilotlar, texnik holatiga ko'ra, barcha yuk ko'tarish mexanizmlarining ulardan keyinchalik foydalanish va xizmat muddatini uzaytirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida diagnostikasini o'tkazadi.

Uskunalar odatda profilaktika va mukammal ta'mirlash dasturlariga muvofiq Bosh mexanik bo'limining vagon deposi mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladigan joriy ta'mirlash vaqtida bajariladi, buning uchun jamiyatda tegishli rejalar ishlab chiqilgan.

### 1.3. Ko'rsatiladigan xizmatlar tavsifi

Jamiyatning barpo etilishi bozorda quyidagi ishlarni amalga oshirishdagi raqobatni shakllantirish zarurati bilan bog'liq:



- mukammal ta'mirlash va depo ta'miri, barcha turdagi yuk vagonlarini mukammal ta'mirlash bilan hizmat muddatini uzaytirish;
- yo'lovchi vagonlarni ta'mirlash;
- harakatlanuvchi tarkibdagi qismlari va uzellarini ta'mirlash va modernizatsiya qilishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha faoliyat;
- barcha turdagi faoliyat bo'yicha me'yoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish;
- ta'mirlash-ekspluatatsiya ehtiyojlari uchun ehtiyot qismlar, uzellar, uskunalar bo'yicha import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish;
- xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish;
- vagonlarni ta'mirlashda foydalanish uchun nostandart uskunalarini loyihalash va ishlab chiqarish;
- vagonlar qismlari va uzellarini sinovdan o'tkazish;
- qurilish-montaj, qurilish-ta'mir va boshqa pudrat ishlarini bajarish;
- ishlab chiqarishga ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish;
- umumiy ovqatlanishni tashkil etish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat va boshqalar.

#### **1.4. Ishlab chiqarish faoliyati**

##### **Ishlab chiqarish va foydalanish**

“O'zvagonta'mir» AJ harakatlanuvchi tarkibni ta'mirlash sohasida raqobat muhitini yaratish uchun tashkil etilgan.

Jamiyat yuk vagonlarining 50 dan ortiq qismlari va uzellarini restavratsiya (tiklash) va ta'mirlash ishlari amalga oshiruvchi bazasiga ega. Tasarrufidagi bo'linmalarda ta'mirlash sifati buzilmas usullari bilan nazorat qilinadi, shuningdek ta'mirlangan qismlar va uzellarning tekshiruvi o'tkaziladi. Ishlab chiqarish xususiyatlariga ko'ra, jamiyat “O'zbekiston temir yo'llari» AJ pudratchisi hisoblanadi, ya'ni yuk vagonlarini ta'mirlash hajmlarini ta'minlash kafolati hisoblanadi.

Amalda bajarilgan ish hajmiga muvofiq yuk vagonlarini ta'mirlashni tashkil etish 2009 yilda temir yo'l transporti Kengashi Komissiyasi tomonidan kelishilgan yuk vagonlarini rejali profilaktik ta'mirlash turlarini ishlab chiqarish me'yornomalari bilan tartibga solinadi.

Yuk vagonlari bajaradigan ishlar hajmini qayd qilishning avtomatlashtirilgan texnologiyasi ishlab chiqilishi yakunlanishi, temir yo'l ma'muriyatlarining ko'pchiligi tomonidan yuk vagonlarini ta'mirlash ishlarini amalda bajarilgan hajmiga muvofiq joriy etilishi (bosgan yo'li bo'yicha), yuk vagonlaridan yangi sharoitda foydalanish tajribasi munosabati bilan, yuk vagonlarini joriy ta'mirlash bo'yicha ishlab chiqarish me'yornomalari 2009 yil 21-22 may oyida o'tkazilgan temir yo'l transporti Kengashining 50-sonli bayonnomasining G ilovasi bilan belgilanadi. Vagonlar ta'mirdan so'ng keyingi ta'mir vaqti (kerakli bosgan yo'li bo'yicha yoki kalendar vaqti) kelgan holda ta'mirlash-aro me'yornomasiga asosan yuk ortish uchun vagonlarni topshirishga yo'l qo'yilmaydi.





Tarmoqda shakllangan harakatlanuvchi tarkib ta'mirini rivojlantirishning kompleks dasturi resurslarini ta'mirlash korxonalari o'rtasida ularning ixtisosligi, ishlab chiqarish quvvati va joylashuviga qarab taqsimlaydi. Temir yo'l transportini isloh qilish kelajakda ta'mirlash dasturini tuzishda tijorat yondashuvining kuchayishiga olib kelishi kerak.

### **Ishlab chiqarish faoliyati**

Vagonlarni ta'mirlash jarayonida asosiy va yordamchi ta'mirlash tartibini belgilash mumkin. Asosiylarga qismlar va ehtiyot qismlarni ta'mirlash, uzellarni yig'ish va butun vagonni yig'ish bilan bevosita bog'liq bo'lganlari kiradi. Bu ishlar vagon depolarining asosiy sexlarida amalga oshiriladi: vagonlarni yig'ish, arava, g'ildirak, avtoulagichni ta'mirlash sexi va avtotormoz uskunalarini ta'mirlash sexi. Yordamchi tayyorlov sexida ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan jarayonlar kiradi, masalan: hom-ashyolarni, ehtiyot qismlarni qabul qilish va ularni tashish; asboblarni va moslamalarni ishlab chiqarish va ta'mirlash; uskunalarini ta'mirlash.

Bu ishlar yordamchi uchastkalarda amalga oshiriladi: temir preslovchi, chilangar-mexanik, yog'ochsozlik, yordamchi-tayyorlov.

Vagon depolari qozonxona, nasos xonasi, kompressor xonasi, hom-ashyolar va ehtiyot qismlarni saqlash xonasini o'z ichiga olib ishlab chiqarish sexlariga xizmat ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri tashkil etish va tezkor boshqaruv har bir korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining asosiy shartidir. Vagon depolarining ishlab chiqarish jarayoni jamiyatning barcha tarkibiy bo'limlari faoliyatini qat'iy muvofiqlashtirishga, jarayonni alohida elementlarga to'g'ri taqsimlashga va ishlab chiqarishning ilg'or meyorlarini o'zlashtirishga asoslangan.

Ishlab chiqarishning har bir bosqichida sifatni nazorat qilish zarurati hozirda umumiy qabul qilingan holatdir, bundan kelib chiqadiki, mahsulot va xizmatlar sifati barcha ishchilarning majburiyatidir.

Sifat tizimini ta'minlash mijoz ishonchlarini oqlash maqsadida ishlab chiqilgan me'yorlari va texnologik jarayonlar tavsiflari shaklida hujjatlashtirilgan tizimini qo'llashni o'z ichiga oladi. Jamiyatda sifat uchun javobgarlik va taqdirlash tizimlari mavjud.

Jamiyat mijozning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini tushungan holda, ularning talablarini iloji boricha to'liq bajarishga va kutilgan natijadan afzal bajarishga intiladi.

“Ist'emo'lchiga e'tibor qilgan holda ish tutish” tamoyilini qo'llash jamiyatning tarkibiy bo'linmalarida quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- iste'molchilarning talab va ishonchlarini o'rganish va tushunish;
- tashkilotning maqsadlari iste'molchilarning ehtiyojlari va ishonchlari bilan bog'liqligiga ishonch hosil qilish;
- iste'molchilar bilan munosabatlarni tizimli nazorat qilish.

Asosiy foydalari:

- bozor ehtiyojlariga moslashuvchan va tezkor javob berish hisobiga erishilgan tovar aylanmasi va bozor ulushining oshishi;
- iste'molchilarning ehtiyojini qondirish darajasini yaxshilash uchun tashkilot resurslaridan yanada samarali foydalanish;
- qayta hamkorlikka olib keladigan iste'molchilar ishonchini oshishi.



## 2. MARKETING TAHLIL VA MARKETING STRATEGIYASI

### 2.1. Marketing tahlil

#### Bozor

Ayni paytda “O‘zvagonta‘mir” AJ rentabellik darajasida ishlashi tufayli foyda olib kelmoqda. Narxlar belgilash siyosati harakatlanuvchi tarkibga investitsiyalarning oshishi va ishlab chiqarishga taaluqli bo‘lmagan xarajatlarni qisqartirish asosida narxlarni optimallashtirish orqali xaridorlarni jalb qilishga qaratilgan bo‘lib, ishlar va xizmatlarni amalga oshirishdan tushgan foydaning oshishiga olib keladi.

Bizning bozor strategiyamiz mijozlarga ishlab chiqarish xarajatlariga teng bo‘lgan shaffof narxlarni belgilashni va muayyan vaqt xarajatlarini qoplash va sof daromad olish uchun zarur bo‘lgan minimal yalpi daromadni taklif qiladi.

Shunday qilib, vagonlarni ta‘mirlash bilan shug‘ullanadigan raqobatchilarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo‘lib, jamiyat xaridorlar ishonchini qozonishga intiladi.

Marketing va o‘z ishlarini, xizmatlarini amalga oshirishda shunga o‘xshash, amalda sinalgan yondashuvdan foydalangan holda, jamiyat tashkil topgan kunidan boshlab ziyonsiz biznesni ta‘minlaydi.

Jamiyat ko‘plab mijozlari bilan uzoq muddatli shartnoma munosabatlariga ega. Garchi ko‘pchilik shartnomalar ko‘p yillar davomida amalda bo‘lib va yildan-yilga takrorlansa ham, shartnomalar bir yilgacha bo‘lgan muddatga tuziladi.

10-jadval

### 2022 yil uchun sanoat korxonalarining vagonlarini ta‘mirlash prognozi ma‘lumotnomasi

	Vagonlar soni
<b><i>Xovos</i></b>	<b>640</b>
“O‘zmetkombinat” AJ	23
“AGMK” AJ	28
“Ammafos Maksam” AJ	80
“O‘zbek ko‘mir” AJ	27
“Samintexkom” MChJ	31
“DAZ” AJ	4
“Navoi Azot” AJ	63
RSP-14	50
OPMS	40
EP-1	40
TOO “Association of Specialists of Carriage Facilities”	254
<b><i>Andijon</i></b>	<b>160</b>
“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ	160
<b><i>Samarqand</i></b>	<b>228</b>
“Navoiy Azot” AJ	38



“Navoiy TYTB”	23
TOO “Association of Specialists of Carriage Facilities”	120
NTMK JKB	4
NTMK MKB	18
NTMK ShKB	25
<b>Jami</b>	<b>1028</b>

Jumladan: 868 ta yuk vagonlaridan 464 ta vagonga mukammal ta'mirlash bilan xizmat muddatini uzaytirish rejalashtirilgan, 160 ta yo'lovchi vagonlarining ta'miri rejalashtirilgan.

### **Tarmoq tahlili**

“O'zvagonta'mir» AJ “O'zbekiston temir yo'llari» AJ bilan xamkorlikda yaqin aloqada bo'lib, jamiyat daromadi 75 foizgacha shakllanadi. Bundan tashqari, “O'zbekiston temir yo'llari» AJ jamiyat aksiyalarining nazorat paketiga egalik qiladi. Biroq, oltita depoga ega bo'lgan “O'zbekiston temir yo'llari» AJ jamiyatning asosiy raqobatchisi hisoblanadi.

Qo'shimcha daromadlar O'zbekiston Respublikasi va qo'shni davlatlarning balansida o'z yuk vagon parklariga ega bo'lgan sanoat korxonalarining buyurtmalari hisobiga shakllanadi.

### **2.2 Xaridor ehtiyojlarini tahlil qilish**

Bugungi kunda jamiyat oldida quyidagi asosiy vazifalar turibdi, ularni imkon qadar qisqa muddatda hal qilish kerak:

- “O'zbekiston temir yo'llari» AJ va boshqa harakatlanuvchi tarkib egalarining yuk vagonlarini ta'mirlash va modernizatsiya qilishning rejalashtirilgan turlarini bajarishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish.

Shu bilan birga, mulkdoridan qat'i nazar, barqaror narx siyosatini quyidagilarga ko'ra ta'minlash zarur:

- Jamiyatning bazaviy depolarida ta'mirlash, ishlab chiqarishining yo'nalishi, ularni tashqi investorlarni jalb qilgan holda qo'shimcha jihozlash, quvvatlardan oqilona foydalanish va natijada vagonlarni ta'mirlashda mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirish.

- moddiy-texnik va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, barcha turdagi xarajatlarni tejash.

- yuk vagonlarini ta'mirlash sifatini oshirish. Bu masalaning yechimi vagonlarni ta'mirlash jarayonining texnik jihozlanishi darajasining oshishi, vagonlarni ta'mirlash uchun yuqori samarali ixtisoslashtirilgan uskunalari va yangi texnologik jarayonlarning joriy etilishi bilan bog'liq.

- Jamiyat xo'jalik faoliyatning boshqa turlariga tegishli ishlarni ularning hajmi oshishi hisobiga bajarishdan tushgan daromadining sezilarli darajada oshishi.

- xususiy vagonlarni jalb etish bilan ta'mirlash ko'rsatkichini oshirishni tashkil etish.

Jamiyat ish boshlagach, barcha vagon depolariga xususiy vagonlarni rejali ta'mirlash uchun shartnoma tuzish huquqini beruvchi summasi cheklanmagan ishonchnoma beriladi. Bu shartnomani imzolash vaqtini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi (buyurtmachi tomonidan tijorat taklifi berilgan vaqtdan vagonlarni ta'mirlash uchun kelguniga qadar).

Shartnomalarda vagonlarni ta'mirlash uchun barcha ehtiyot qismlar bilan, bajaruvchidan



yoki, buyurtmachi tomonidan ta'minlash ham nazarda tutilgan, ya'ni tanlash huquqi ko'zda tutilgan.

Depo rahbarlari uchun deyarli barcha ish vaqtini ish joylarida o'tkazish, yuk vagonlarining asosiy uzellari va qismlarini ta'mirlash texnologiyasini amalga oshirilishini nazorat qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishda "tor joylar" muammolarini hal qilish imkoniyati yaratildi.

Yuk vagonlarga olinayotgan asosiy ehtiyot qismlarni kirish nazorati va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning chiqish nazorati tizimi joriy etilgan.

Har bir yuk vagonining texnologik pasportini to'ldirish texnologiyasi ishlab chiqilgan va yo'lga qo'yilgan.

Vagon depolarining ishlab chiqarish uchastkalarini yanada jihozlash dasturi ishlab chiqilgan.

Biz uchun ta'mirlash sifatini yaxshilash - eng dolzarb masala.

Jamiyatning barcha vagon depolarida ISO 9001:2015 xalqaro standartlar sifatiga muvofiq, sertifikatiga ega bo'lib menejment tizimi joriy etilgan.

Jamiyat, harakatlanuvchi tarkibiga ega bo'lgan mulkdor-kompaniyalar va xususiy harakatlanuvchi tarkibiga ega bo'lgan yirik sanoat korxonalar bilan o'z biznesi imkoniyatlarini kengaytirgan holda, quyidagi sohalarda xizmat ko'rsatishga tayyor.

- harakatlanuvchi tarkibni ta'mirini optimallashtirish;
- vagonning texnik holati haqida ma'lumot bilan ta'minlash;
- vagonni ta'mirlash xarajatlarining shaffofligini ta'minlash va boshqa depolarda ta'mirlash tannarhini qiyosiy baholash;
- sifatli ta'mirni ta'minlash
- texnologiyaga rioya qilish va foydalanish kafolat muddatini ta'minlash.

#### **Jamiyat quyidagilar hisobiga ta'mirlash xarajatlarini kamaytirishni ta'minlaydi:**

- ishlab chiqarish maydonlaridan oqilona foydalanish hisobiga yo'qotishlarni kamaytirish;
- sifatsiz va o'z vaqtida bajarilmagan ta'mirlash sababli yo'qotishlarni kamaytirish;
- hom-ashyo va ehtiyot qismlarni haddan tashqari oshirib sarflash holatlarini istisno qilish; (ishni bajarish vaqtida moddiy-texnik resurslarning sarflanishini ochiq hisobga olish)
- ta'mirlashning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun muayyan javobgarlikni ta'minlash, shuningdek xodimlarning mehnat motivatsiyasini oshirish;
- hom-ashyolar va ehtiyot qismlarga uzoq muddatli markazlashtirilgan buyurtmalarni amalga oshirish.

### **2.3. Raqobatchilar tahlili**

Bozor iqtisodiyoti - bu raqobat. Bozor iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lish va muvaffaqiyat qozonish uchun raqobatchilarimiz kimligini, ular biznesni qanday olib borishini va iloji bo'lsa, ularning muvaffaqiyatining asosiy omillarini bilish jamiyat uchun muhimdir.



Hozirgi vaqtda yuk vagonlarini ta'mirlash bo'yicha amalga oshirilayotgan xizmatlar, bundan tashqari Toshkent, Qo'qon, Buxoro, Qarshi, Qo'ng'rot, Termiz va "O'ztemiryo'lmashtamir" UK da joylashgan "O'zbekiston temir yo'llari" AJning vagon depolari tomonidan hamda uning "Andijon mexanika zavodi" va "Quyuv-mexanika zavodi" kabi sho'ba korxonalarini tomonidan amalga oshirilmoqda.

"O'zvagonta'mir" AJning ta'mirlash depolari kabi, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ depolari barcha turdagi vagonlarni ta'mirlashga ixtisoslashgan. Quyida ushbu depolar, ularning ixtisoslashuvi va "O'zvagonta'mir" AJning depolari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**11-jadval****Vagon depolarining ixtisoslashuvi**

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ vagon depolari		"O'zvagonta'mir" AJ ning eng yaqin vagon depolari	
Joylashuvi	Ixtisosi	Joylashuvi	Ixtisosi
Toshkent	Barcha turdagi yuk vagonlari tamirlash	Xovos	Boshqa turdagi vagon, Yarim ochiq vagonlar, Platformalar
Qo'ng'rot	Barcha turdagi yuk vagonlari tamirlash	Andijon	Yopiq vagonlar, Platformalar, Yarim ochiq vagonlar, Boshqa turdagi vagon, Yo'lovchi vagonlar
Buxoro, Qo'qon	Barcha turdagi yuk vagonlari tamirlash	Samarqand	Yopiq vagonlar Platformalar, Yarim ochiq vagonlar, Boshqa turdagi vagon
Qarshi, Termiz	Barcha turdagi yuk vagonlari tamirlash		

**Umumiy tahlil**

Moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish jamiyatning kuchli va zaif tomonlari borligi to'g'risida quyidagi xulosalar chiqarishimizga imkon beradi. Kuchli tomonlar jamiyat strategiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, zaif tomonlar esa ishning yo'nalishini, xodimlar va menedjmentning ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarini belgilaydi.

**12-jadval****Jamiyatning kuchli va zaif tomonlari**

Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari
Kuchli ixtisoslashgan ishlab chiqarish bazasining mavjudligi.	Ish va xizmatlar uchun narxlarni nazorati davlat organlariga qaramlik.
Ushbu sohada maxsus ma'lumot va ish tajribaga ega bo'lgan shakllangan mutaxassislar guruhining mavjudligi.	Uskunalarining qisman eskirganligi.



Iste'molchilar, vazirliklar, muassasalar, banklar o'rtasida ham o'rnatilgan ish munosabatlar va aloqalari ijobiy obro'ga ega.	Hujjatlarni bojxona orqali rasmiylashtirishda ayrim qiyinchiliklar. Bular vagonlarni qoldiq qiymati qancha yuqori bo'lsa, to'lov miqdori ham yuqori bo'lmoqda.
Yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarning mavjudligi.	Ehtiyot qismlar va uskunalarni etkazib beruvchilarning milliy valyuta kursining o'zgarishiga bog'liqligi.
Jamiyat faoliyatini boshqarish uchun aniq tashkiliy tuzilmaning mavjudligi.	MDH davlatlaridan kirib keladigan yuklangan yuk vagonlarni yuk tushirilganidan keyin ta'mirga olishda bojxona muammolari.

### **Muvaffaqiyat omillari**

Ishni tashkil etish quyidagilar hisobiga amalga oshiriladi.

- tuzilgan shartnoma va kontraktlarning aniq va o'z vaqtida bajarilishi uchun zarur choralarni ko'rish;

- xizmatlar buyurtmachilari va iste'molchilari bilan hamkorlik qilishning maqbul variantlarini izlash va amalga oshirish;

- jamiyat moliyaviy-xo'jalik faoliyatini chuqur tahlil qilish, moliyaviy holatni barqarorlashtirish va barqaror ishlashini ta'minlash bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqish;

- kadrlarni bozor talablari darajasida tayyorlash, kadrlarning malakali darajasini tanlash va saqlash;

- buyurtmalar portfelini shakllantirish bo'yicha takliflarni o'rganish uchun O'zbekiston Respublikasi bozorini puxta marketing tadqiqotlarini o'tkazish;

- ish amaliyotiga keyinchalik joriy etish, zarur ma'lumotlar to'plash uchun ma'lumot bazalarini qo'llash, ma'lumotlardan foydalanish, keyinchalik ularni qayta ishlab va amaliyotda qo'llash;

- boshqaruv tizimini takomillashtirish.

Belgilangan vazifalar va jamiyat rivojlanishining kutilayotgan ko'rsatkichlarini amalga oshirish bo'yicha rejalashtirilgan faoliyatda shartnoma majburiyatlarini sifatli bajarish uchun shart-sharoitlarni yaratish nazarda tutiladi.

### **2.4. Marketing strategiyasi**

Sanoat korxonalarining xususiy vagonlar parkini marketing tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, 2021 yilda «O'zvagonta'mir» AJ tarkibiy bo'linmalarida sanoat korxonalarining vagonlarini ta'mirlash rejalashtirilgan ya'ni - 372 ta vagonlarni depo ta'miri, - 32 ta vagonni mukammal ta'miri va 464 ta vagonni xizmat muddatini uzaytirish bilan mukammal ta'mirlash.

Hozirgi vaqtda «O'zvagonta'mir» AJ tarkibiy bo'linmalarida xususiy vagonlarni ta'mirlash bo'yicha shartnomalarni uzaytirish bo'yicha xorijiy kompaniyalar bilan muzokaralar olib borilmoqda.



## 2022 yilga eksport xizmatlarining prognozi

Shartnoma kim bilan tuzilgan	2022 yilda ta'mirning rejalashtirilgan hajmlari
<b>Xovos vagon deposi</b>	
TOO "Association of Specialists of Carriage Facilities"	285 250 AQSh dollari
Yuk vagonlarini depo ta'miri bo'yicha	- 115 vagon
Yuk vagonlarini mukammal ta'miri bilan xizmat muddatini uzaytirish bo'yicha	- 139 vagon
<b>Samarqand vagon deposi</b>	
TOO "Association of Specialists of Carriage Facilities"	141 800 AQSh dollari
Yuk vagonlarini depo ta'miri bo'yicha	- 32 vagon
Yuk vagonlarini mukammal ta'miri bilan xizmat muddatini uzaytirish bo'yicha	- 88 vagon

Jami bo'lib 427 050 AQSH dollariga shartnoma imzolanib 374 ta vagonni ta'mirlash reja qilingan.

Jamiyatning 2021 yildagi ish natijalari bo'yicha o'tkazilgan tahlilga asosan, quyidagi korxonalar va kompaniyalar vagonlarni ta'mirlash uchun hom-ashyolar va ehtiyot qismlarni yetkazib beruvchilari hisoblanadi:

## Asosiy ehtiyot qismlar va hom-ashyolarni etkazib beruvchilar

№ t/r	Etkazib beruvchining nomi	Etkazilayotgan mahsulot	Hajmining solishtirma og'irligi
1	“O‘TY” AJ “Temiryo‘lyonilg‘ita‘min”	YMM va ehtiyot qismlar, vagonlar uchun hom-ashyolar	71 %
2	“O‘ztemiryo‘lmashta‘mir» UK	ehtiyot qismlar, vagonlar uchun hom-ashyolar	Qolganlarining barchasi 29 %
3	“Toshkent yo‘lovchi vagonlarni qurish va ta‘mirlash zavodi” AJ	ehtiyot qismlar, vagonlar uchun hom-ashyolar	
4	“Quyuv-mexanika zavodi” ShK	ehtiyot qismlar, vagonlar uchun hom-ashyolar	
5	“Toshkent mexanika zavodi” AJ	ehtiyot qismlar, vagonlar uchun hom-ashyolar	
6	“Andijon mexanika zavodi” ShK	ehtiyot qismlar, vagonlar uchun hom-ashyolar	
7	Toshkent-tovar bekati vagon deposi	ehtiyot qismlar, vagonlar uchun hom-ashyolar	



Yuqoridagi asosiy yetkazib beruvchilarning ishonchliligini inobatga olgan holda, 2022 yilda ular bilan yuk vagonlarini ta'mirlash uchun hom-ashyolar va ehtiyot qismlar yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzish rejalashtirilgan.

“O'zvagonta'mir” AJ faoliyati va uning potentsial hamkorlariga ichki va tashqi bozorda ko'rsatilayotgan xizmatlari to'g'risida ma'lumot berish uchun 2022 yilga bir qator chora - tadbirlar ishlab chiqilgan, ular:

- Ommaviy axborot vositalarida jamiyat ko'rsatayotgan xizmatlar haqidagi reklama ma'lumotlarini doimiy ravishda e'lon qilish;

- “O'zvagonta'mir” AJning rasmiy [www.uzagontamir.uz](http://www.uzagontamir.uz) veb-saytida: jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda yangilab turish;

- Jamiyat va uning tarkibiy bo'linmalari faoliyatiga bag'ishlangan fotoalbom, reklama va axborot nashrlarini ishlab chiqish va chiqarish.

- Chet el tajribasini o'rganish va kerak bo'lsa, bu tajribani ishda qo'llash.

“O'zvagonta'mir” AJ “O'ztemiryo'lyo'lovchi” AJ bilan yo'lovchi vagonlariga depo ta'miri va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma imzolandi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, 2022 yilda yo'lovchi vagonlarni texnik ko'rikdan o'tkazishdan, QQSni hisobga olmaganda, qariyb 943 million 978 ming so'mlik daromad olinishi kutilmoqda.

## **2.5. Sifat sohasidagi siyosati va maqsadlari**

“O'zvagonta'mir” AJ taklif etayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun “O'zvagonta'mir” AJ rahbariyati sifat sohasidagi asosiy maqsad – iste'molchilarning quyidagi talablariga javob beradigan yuk vagonlarini ta'mirlashni belgilaydi.

- ekspluatatsiya vaqtida ta'mirlanayotgan vagonlarning xavfsizligini ta'minlash;
- “O'zbekiston temir yo'llari” AJ tomonidan tasdiqlangan yo'riqnomalar va texnologiyalarga muvofiq vagonlarni ta'mirlashni amalga oshirish;
- kafolatli ta'mirni belgilangan muddatlarda va mijozga mos narxlarda amalga oshirish;
- iste'molchilarning boshqa talablarini bajarish.

Sifat sohasida qo'yilgan maqsadga erishish uchun jamiyatimiz quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- ISO 9001:2015 talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimining samaradorligini oshirish va takomillashtirish;

- vagonlarni ta'mirlash ehtiyojlarini doimiy o'rganish;
- vagonlarni ta'mirlashda buyurtmachi vakilining ishtiroki;
- buyurtmachi bilan ta'mirlash hajmlari, ta'mirlanayotgan vagonlar narxlari va yetkazib beriladigan ehtiyot qismlar narxlarini kelishish;

- vagonlarni ta'mirlash uchun malakali xodimlarni jalb qilish va kelajakda ularning malakasini yanada oshirishga ko'maklashish;

- vagonlarni ta'mirlash ishlarining bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirish;
- xaridlarni amalga oshirishda ishlab chiqaruvchi zavodlarga yoki bevosita etkazib beruvchilarga afzallik beriladi, shuningdek mahsulotning muvofiqlik sertifikatini, etkazib beruvchining joylashuvi, yetkazmalar xarakteri va yetkazib berilayotgan tovarlarning narxi hisobga olinadi;

- xaridlar markazlashgan ravishda Toshkent shahridagi “O'zvagonta'mir” AJ boshqaruv apparati moddiy-texnik ta'minot bo'limi tomonidan yoki mustaqil ravishda Toshkentda “O'zvagonta'mir” AJ boshqaruv apparati bilan kelishilgan holda joylardagi vagon depolari tomonidan amalga oshiriladi;





- sifatsiz hom-ashyolar yetkazib berilganda shikoyat dalolatnomasini tuzush va yetkazib beruvchini xabardor qilish;

- vagonlarni ta'mirlashning uzluksiz jarayonini ta'minlash uchun, texnologiya, DSAT va OST talablarini hisobga olgan holda, vagon depolarida bir qancha qismlar o'z kuchlari bilan ishlab chiqariladi, shuningdek, ularning meyoriy-texnik va texnologik hujjatlar talablariga muvofiqligi aniq tekshirilgandan so'ng, yaroqli qismlarni qayta ishlatishga ruxsat beriladi.

Sifat sohasidagi maqsadga erishish mezonlari quyidagilar:

- kafolat muddati davomida ta'mirlangan vagonlarga shikoyat dalolatnomasi (forma BY-41) tuzilishiga yo'l qo'ymaslik;

- yuk vagonlari ta'mirlangandan so'ng birinchi qabul qilinishida buyurtmachi tomonidan qabul qilinishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 1 avgustdagi PQ-2569-sonli "2016-2019 yillarda "Iqtisodiyotning real sektorida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va joriy etish chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini ijro etish bo'yicha "O'zvagonta'mir" AJning 2016 yil 9 avgustdagi 124-sonli buyrug'i bilan, "O'zvagonta'mir" AJ vagon depolarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'yilgan masalalarni bajarish maqsadida, shuningdek "O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruvi raisining 2016 yil 22 avgustdagi 359-N-sonli buyrug'i asosida 2022 yilda axborot-kommunikatsiya tizimlarini va dasturiy mahsulotlarni joriy etishni, shu jumladan xodimlarni o'qitish va malakasini oshirishni moliyalashtirish rejalashtirilgan.

### 3. ISHLAB CHIQRISH REJASI


#### 3.1. Ishlab chiqarish rejasi.

##### **Moyilliklar**

Dastur 2022 yilda QQSni hisobga olmagan holda 54 250 000 ming so'm umumiy hajmini amalga oshirish belgilandi.

Ishlarning barcha turlari bo'yicha rejalashtirilgan moliyaviy natija (foyda) 295 million so'mni tashkil etadi, bu byudjet bilan soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitobni amalga oshirishga zaxira fondini to'ldirishga va qolgan foydani o'z aylanma mablag'larini to'ldirishga yo'naltirishga imkon beradi.


1-rasm





Jamiyatni o'z aylanma mablag'lari bilan yuqori ta'minlanishiga erishish va mavjud resurslardan foydalanishning yuqori ko'rsatkichlarini ta'minlash ko'zda tutilgan.

2-rasm




### Rejalashtirilgan ko'rsatkichlar

**2022-yilda rejalashtirilgan ta'mirlash hajmi quyidagilardan iborat:**

- Depo ta'miri – 1 970 vagon
- Mukammal ta'miri - 568 ta vagon
- Vagonlarni ta'mirlash bilan xizmat muddatini uzaytirish - 738 ta vagon

15-jadval

	Yopiq vagonlar	Platfomalar	Yarim ochiq vagonlar	Sisternalar	Boshqa turdagi vagonlar	Ja'mi
<b>Jami depo ta'miri</b>	427	80	440	87	936	<b>1 970</b>
<b>Jami mukammal ta'miri</b>	124	100	10	106	228	<b>568</b>
<b>Vagonlarni ta'mirlash bilan xizmat muddatini uzaytirish</b>	70	30	240	15	383	<b>738</b>
<b>Yo'lovchi vagonlarning depo ta'miri</b>						<b>30</b>
<b>Yo'lovchi vagonlarning TO-3</b>						<b>130</b>
<b>Keltirilgan hajm</b>						<b>992 026</b>



### 3.2. Narxlar

2021 yil uchun buyurtmachilar bilan kelishilgan rejalashtirilgan narxlar qabul qilindi, ular hom-ashyolarni sarflash me'yorlari va hom-ashyolar, ehtiyot qismlarga joriy narxlardan kelib chiqqan holda shakllantirilgan. Yuk vagonlarini ta'mirlash uchun bazaviy narxlarni belgilash asosida ta'mirlash uchun to'liq xarajatlar va vagonlarning texnik holatini hisobga olgan holda xarajatlarni aniqlash usuli turadi. Yakuniy narxni aniqlashda talab hajmiga asoslangan bozor usullari ham qo'llaniladi. Ta'mirlash xarajatlari ehtiyot qismlar va hom-ashyolarni sotib olish xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, tariflarga bozor konyukturasi va ta'mirni tashkil etishdagi texnik jihozlanganlik darajasi kabi ko'rsatkichlar ta'sir ko'rsatadi. Ta'mirlash ishlarining narxi shartnoma bilan belgilanadi va uni tuzishda Buyurtmachi va Pudratchi barcha shartlarni kelishib oladilar. Mulkdorlarni, birinchi navbatda, narx oqilona bo'lishi qiziqtiradi. Bugun biz shaffof narxlarni shakllantirishga erishdik va hech qanday munozarali masalalar kelib chiqmayapti. Sifatsiz ta'mir uchun jarimalarning qattiq tizimi ko'zda tutilgan va ta'mirlashga qayta kirish aybdorlar hisobidan amalga oshiriladi.

Narxlarni hisob-kitob qilishda 22 dan 35 foizgacha bo'lgan yalpi foydaning har xil darajasidan foydalanish, shakllantirish vaqtida demping yoki monopoliyal yuqori narxlardan qochish va ularning raqobatbardoshligini ta'minlash istagi bilan bog'liq.

Ta'mirlash xizmatlari mijozlarini ushbu xizmatlarni ko'rsatuvchilarga yaqinlashtirish maqsadida, «O'zvagonta'mir» AJ vagon depolari rahbarlariga xizmat ko'rsatish shartnomalarini tuzish uchun ishonchnoma berilgan. Bu nafaqat har bir ishlab chiqarish maydonining xarajatlarni hisobga olgan holda, mahsulot narxini shakllantirishga, balki har bir tarkibiy bo'linmaning olingan daromad va ularni to'g'ri shakllantirish uchun javobgarligini oshirishga imkon beradi. Mintaqalar bo'yicha sotuvlarni kuzatish tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining zimmasiga yuklangan bo'lib, ular olingan ma'lumotlarni jamiyat boshqaruv apparatiga muntazam etkazib turadilar.

«O'zbekiston temir yo'llari» AJ bilan depo, mukammal va mukammal ta'mirlash bilan xizmat muddatini uzaytirishni amalga oshirish bo'yicha shartnomalar tuzish «O'zvagonta'mir»



AJ boshqaruv apparati tomonidan “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Vagon xo‘jaligi boshqarmasi bilan amalga oshiriladi.

### **3.3. Ishlab chiqarish omillari**

Ta‘mirlash ishlarining sifati va davomiyligiga ta‘sir etuvchi asosiy omillardan biri bu asosiy uzellarning zarur texnologik zaxirasining mavjudligi. Ba‘zida ehtiyot qismlar tanqisligi muammosi paydo bo‘lar edi. Ammo bu borada, jamiyat faoliyat yuritib kelayotgan vaqt ichida, vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishdi. Tashkiliy chora-tadbirlar tufayli ehtiyot qismlarning aylanma zaxirasi yaratildi.

“O‘zvagonta‘mir” AJ moddiy-texnik ta‘minotining 71 foiz “Temiryo‘lenilg‘ita‘min” boshqarmasi orqali amalga oshiriladi.

Vagon depolari tasdiqlangan normalarga muvofiq ehtiyot qismlar va hom-ashyolar bilan ta‘minlanadilar.

Bolg‘alash, po‘lat, cho‘yan quyish uchun markazlashtirilmagan yetkazib berishning o‘rnatilgan normalari hisobiga jamiyat mustaqil ravishda “O‘ztemiryo‘lmashtamir” UK zavodlariga buyurtmalar joylashtiradi.

### **Zaxiradagi etkazib beruvchilar:**

Yuqorida keltirilgan hom-ashyolar va ehtiyot qismlarni yetkazib beruvchilar bir qancha boshqa korxonalar bor. Ularning narxi pastroq, lekin aksariyat hollarda ularda har doim ham hom-ashyolar naqd bo‘lmaydi va TMB uchun oldindan to‘lovni amalga oshirish kerak bo‘ladi. Zarur hollarda, bizda bo‘lmagan TMB larni sotib olish masalasini ko‘rib chiqamiz. Qo‘shimcha xarajatlar mijozlarga uzluksiz xizmat ko‘rsatishdan tushgan daromad bilan qoplanadi.

#### **• Turdosh mahsulotlar**

- Tijorat turdosh mahsulotlar:

Ehtiyot qismlar, bolt-gayka mahsulotlari ishlab chiqarish;

Maxsus kiyimlar tikish.

Belgilangan tartibda yig‘ish punktlariga topshiriladigan qora va rangli metallarning ikkilamchi chiqindilari

2022 yilda 40,4 million so‘mlik xalq iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish va aholiga 36,4 million so‘mlik pullik xizmatlar ko‘rsatish rejalashtirilgan.

### **3.4. Mehnat haqi**

Tuzulmaviy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish ko‘lamini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish, uning barqaror yuqori o‘shish sura‘tlarini, barqaror va muvozanatli makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni ta‘minlash, xususiy mulk sektorini mustahkamlash va biznes uchun qulay muhit yaratish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishning eng muhim sharti bo‘lgan aholi bandligini ta‘minlash, eksportni har tomonlama rag‘batlantirish - jamiyat oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardir.

Ish haqi mehnatkashlarning moddiy farovonligining o‘shishini ta‘minlaydi va mehnat unumdorligini muttazam oshirishning eng muhim iqtisodiy dastagi hisoblanadi. Jamiyatda ish haqini tashkil etish quyidagi asosiy tamoyilga asoslanadi:

• Ish haqi miqdori to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat natijalariga, har bir xodimning malaka darajasi va kasbiy mahoratiga, bajarayotgan ishining hajmi va murakkabligiga bog‘liq.



Jamiyat Kuzatuv kengashi, ma'muriyati va Kasaba uyushmasi qo'mitasining qo'shma qaroriga binoan, Jamiyat xodimlariga mehnat haqi to'lash "O'zbekiston temir yo'llari" AJ xodimlariga mehnat haqi to'lash shartlari to'g'risidagi amaldagi ustavlariga va Jamoa shartnomasining bo'limlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Jamiyatda mehnatga ish haqi to'lashning ishbay-mukofotlash va vaqtbay-mukofotlash tizimidan foydalanadi. Xodimlarning lavozimlari va kasblari bo'yicha mehnat haqi to'lash razryadlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 16 sentyabrdagi 775-sonli "Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan amaldagi 22-razryadli YTSga muvofiq belgilanadi. Xodimlarning barcha guruhlari uchun tarif koeffitsientlari Tarmoq tarif setkaga muvofiq belgilangan.

**16-jadval****Mehnat va ish haqi bo'yicha 2022 yilgi prognoz**

	<b>Xodimlar soni</b>	<b>MHTF, ming.so'm</b>	<b>O'rtacha bir oylik ish haqi, so'm</b>
2020 yil amalda	783	21 598 344	2 298 674
2021 yilning 9 oyi	750	21 719 129	2 413 236
2021 yil prognozi	750	29 730 000	3 303 333
2022 yil prognozi	750	31 490 000	3 498 888

**4. MOLIYAVIY REJA****Mablag'lar**

Biznes-rejani ishlab chiqish jarayonida barcha hisob-kitoblar inflyatsiya daromad va xarajatlarga bir xil ta'sir qiladi degan taxminda inflyatsiyaning nol darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilgan.

**4.1. 2021 yil 9 oyining moliyaviy natijalari haqida hisobot****17-jadval****2021 yil 9 oyining moliyaviy natijalari haqida hisobot**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Hisobot davri uchun</b>	
	<b>Daromad</b>	<b>Xarajat</b>
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	39 782 929	
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi		35 659 329
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi (zarari)	4 123 600	
Davr xarajatlari, jami		5 578 327
Ma'muriy xarajatlar		2 746 420
Boshqa operatsion xarajatlar		2 831 907
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	1 566 745	
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)		



Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami		
Dividendlar shaklidagi daromadlar		
Valyuta kursi farqidan daromadlar		
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari		
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar shu jumladan:		
Umumxo'jalik faoliyatning foydasi (zarari)	112 018	
Foida solig'i		16 803
Foydadan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar		
Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	95 215	

### ***Kelgusi sotuv hajmi***

**Sotish hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar** rejalashtirilayotgan sotuvlar hajmi bo'limidan olingan.

**Sotilgan tovarlar tannarxi** mahsulot va asosiy ishlab chiqarish hom-ashyolarini ishlab chiqarishga bevosita sarflanadigan tirik mehnatni o'z ichiga oladi.

**Davr xarajatlari** ma'muriy ehtiyojlar uchun xarajatlarni o'z ichiga oladi, shu jumladan xodimlarning ish haqi va boshqa operatsion xarajatlari hisobga olgan holda.

**Yalpi foyda** - sotuvning umumiy hajmi va sotilgan mahsulot tannarxi o'rtasidagi farqdir.

**Foyda (zararlar)** davr xarajatlarini foyda miqdoridan davr xarajatlarini ayirmagan holda hisoblab chiqariladi.

Ta'mir jarayonining murakkabligi, uning jamiyat xo'jalik faoliyatidagi ahamiyati, uzel ta'miri bir necha mustaqil qayta taqsimlash bosqichidan o'tadigan xarajatlarning xilma-xilligi. Jamiyatda mahsulot tannarxini hisoblash va ishlab chiqarish xarajatlarini qayta taqsimlab hisobga olish usuli qabul qilingan.

### **4.2. Foyda va zararlar haqida hisobot**

**18-jadval**

#### **2022 yil prognozi**

ming so'm

Ko'rsatkichlar	2021 yil prognozi		2021 yilda kutilayotgan		2022 yil prognozi	
	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat
Sotuvdan tushgan sof tushum	47 000 000		52 044 000		54 250 000	
Ishlab chiqarish tannarxi		42 100 000		46 620 000		48 520 000
Sotuvdan kelgan moliyaviy natija	4 900 000		5 424 000		5 730 000	
Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar	1 997 000		2 090 000		2 225 000	
Valyuta kursi farqlari, boshqa olingan dividendlar						
Ma'muriy xarajatlar		2 480 000		3 600 000		3 750 000
Boshqa operatsion xarajatlar		4 280 000		3 775 876		3 910 000
Foyda solig'ini to'lashdan oldingi umumiy moliyaviy natija	137 000		138 124		295 000	



Foyda solig'i		20 824		20 995		44 840
Infratuzilma solig'i						
Sof foyda	<b>116 176</b>		<b>117 129</b>		<b>250 160</b>	

Sof foydani taqsimlash quyidagi yo'nalishlar bo'yicha prognoz qilinadi:


- ❖ 5 foiz - rezerv fondi – 12 mln. 508 ming so'm.
- ❖ 2 foiz - mehnatni muhofazalash fondi – 5 mln. 003 ming so'm.
- ❖ 52 foiz - dividendlarni to'lashga – 130 mln. 083 ming so'm yoki 43,82 so'mdan 1 aktsiyaga.
- ❖ 41 foiz - jamiyat o'z aylanma mablag'larini to'ldirish uchun – 102 mln. 566 ming so'm.

O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti tizimida ko'p yillik tajriba, malakali kadrlar jamiyatga oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi. Jamiyat boshqaruv apparatida yuqori malakali mutaxassislar ishlaydi, ular tahlil masalalarini, joriy rejalashtirish va natijalarni prognoz qilish, tashqi investitsiyalarni qidirish va jamiyatning jozibali sarmoyaviy qiyofasini yaratishga qodir. Zarur bo'lganda, jamiyat strategik rejalashtirish, moliyaviy resurslarni birlashtirish va loyihalarni moliyalashtirish manbalarini aniqlash sxemalarini ishlab chiqish tajribasiga ega bo'lgan maslahatchilarni jalb qilish niyatida.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 15 oktabrdagi 444-sonli "Me'yorlanadigan ayrim xarajatlar normativlarini tasdiqlash to'g'risida" gi qaroriga muvofiq yuborilayotgan oxirgi summalar:

- kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash uchun - 100 million so'm ajratiladi.

#### 4-rasm





**2021 yilda kreditorlik va debitorlik (muddati o'tgan) qarzlarni «O'zvagonta'mir» AJ bo'yicha qisqartirish tadbirlari**

t/r	Tadbirlar	Bajarish muddati	Ijrochi	Nazorat
1	2	3	4	5
1.	2018 yil yakunlari bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlarning holatining tahlilini hisobga olgan holda jamiyat bo'yicha monitoring o'tkazish, «O'zvagonta'mir» AJ da va vagon depolarda debitorlik va kreditorlik qarzlarning qisqartirishini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish.	2021 y. 1-chorak	VChD Boshliqlari Bosh buxgalter	«O'zvagonta'mir» AJ Bosh direktori
2.	Debitorlik va kreditorlik qarzlarning holatini tahlil qilishni hisobga olgan holda har chorakda debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish masalalari bo'yicha VChD bosh buxgalterlarini taklif etgan holda majlislar o'tkazish	Har chorakda	VChD Boshliqlari Bosh buxgalter	«O'zvagonta'mir» AJ Bosh direktori
3.	Debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish ishiga amaliy yordam ko'rsatish uchun «O'zvagonta'mir» AJ vagon depolari bo'yicha quyidagi xodimlar birlashtirilgan: Samarqand VChD – «O'zvagonta'mir» AJ bosh hisobchisi Andijon VChD – «O'zvagonta'mir» AJning yetakchi yuriskonsulti Xovos VChD – «O'zvagonta'mir» AJ bosh hisobchi kassiri.	Muntazam 2021 yil davomida	Bosh buxgalter, yetakchi yuriskonsult, yetakchi buxgalter	«O'zvagonta'mir» AJ Bosh direktori
4.	Debitorlik va kreditorlik holatini tahlil qilish to'g'risidagi ma'lumotnomani jamiyatning yetakchi yuriskonsultiga debitorlik qarzi bo'yicha materiallarni xo'jalik sudiga taqdim etish uchun har oyda taqdim etishni tashkil etish.	Muntazam 2021 yil davomida	yetakchi yuriskonsult	«O'zvagonta'mir» AJ Bosh direktori
5.	Muddati o'tgan debitorlik qarzlari bo'yicha materiallarni xo'jalik sudiga taqdim etish.	Muntazam 2021 yil davomida	yetakchi yuriskonsult	«O'zvagonta'mir» AJ Bosh direktori
6.	Xo'jalik sudining ijro varaqasiga muvofiq, debitorlik qarzlarni undirishning bajarilishini nazorat qilish	Muntazam 2021 yil davomida	yetakchi yuriskonsult	«O'zvagonta'mir» AJ Bosh direktori



**4.3. Jamiyatning moliyaviy jozibadorligini oshirish bo'yicha tadbirlar**

20-jadval

**Jamiyatning moliyaviy jozibadorligini oshirish, xarajatlar va mahsulot tannarxini qisqartirish bo'yicha tadbirlar**

t/r	Amalga oshirilayotgan ishlarning nomi	Ijro muddati	
		2020	2021
1	2	3	4
<b>1. Jamiyat rentabelligini oshirish</b>			
1.1.	Har chorakda jamiyat va tarkibiy bo'linmalar ishining ishlab chiqarish va moliyaviy natijalarini tahlil qilish, ishdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rish.		
1.2.	Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash bo'yicha chora –tadbirlarni quyidagilar hisobiga amalga oshirish: <input type="checkbox"/> Texnologik jarayonni optimallashtirish; <input type="checkbox"/> Texnik vositalarni yangilash va modernizatsiyalash; <input type="checkbox"/> Ilg'or texnologiyalarni joriy etish; <input type="checkbox"/> Normalash tizimi va mehnatni tashkil etish shakllarini takomillashtirish: ish kunini bo'lish, korxonada o'rindoshlik, to'liq bo'lmagan ish vaqti rejimini qo'llash.		
1.3.	Ish kunini suratga olish yo'li bilan kasblar o'rindoshligi uchun, xizmat ko'rsatish hududlari uchun qo'shimcha haq to'lashning asoslilik darajasini aniqlash, asosiy va o'rindosh kasblar bo'yicha xodimlarning haqiqiy ish bilan bandligini o'rnatish.		
1.4.	Ish kunini muntazam suratga olish orqali ish vaqtining samarasiz yo'qotishlarini aniqlash va bartaraf qilish.		
1.5.1.	Bo'linmalarda amalda bo'lgan texnologik-me'yorlovchi va operatsion kartalarni tahlil qilish asosida ishlab chiqarish, texnologik jarayonlar va ta'mirlash vaqt normalarini unifikatsiyalash.		
1.5.2.	Mehnatni tashkil etish va me'yorlash bo'yicha bir xil turdagi ishlarni bajarish va dasturli majmua borasida qardosh korxonalarining tajribasini hisobga olgan holda texnologik-me'yorlovchi va operatsion kartalarni takomillashtirish		
1.6.1.	Vagonlar parkining eskirganligini hisobga olgan holda hom-ashyolar, ehtiyot qismlar va asboblardan foydalanish bo'yicha me'yoriy bazani yaratish.		
1.6.2.	Yo'lovchi va yuk vagonlari, ishchi mashinalari inventarlashdan chiqarilgandan keyin hosil bo'lgan materiallar, vagon ehtiyot qismlari hisobini qat'iy hisobga olishni ta'minlash		



1.7.	Qayta foydalanish uchun eski hom-ashyolar va ehtiyot qismlarni tiklash va restavratsiyalash bo'yicha ishlarni kengaytirish, xususan: <input type="checkbox"/> Arava qismlari; <input type="checkbox"/> Avtoulagich moslamasi qismlari; <input type="checkbox"/> Avtomatik tormoz uskunalari qurilmalari va qismlari; <input type="checkbox"/> G'ildirak juftliklari.
1.8.	Resurslarni tejaydigan texnologiyalarni, iqtisodiy uskunalarni joriy etish orqali yoqilg'i va elektr energiyasi sarfini kamaytirishni ta'minlash.
1.9.	Ta'minot tizimlarida bug', suv, havo sirkib chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik
1.10.	Quyidagilar hisobiga yoqilg'i-energetika resurslarining solishtima sarfini har yili muntazam kamaytirishni ta'minlash:  - qozonlarning ishlashini 7 soatlik ish vaqtiga o'tkazish; - qozonda suyuq yoqilg'ining to'liq yonishini ta'minlash; - barcha quvurlarni issiqlik izolatsiyasi; - navbatchi yoritishni o'rnatish; - uskunaning foydasiz ishlashiga yo'l qo'ymaslik.
1.11.	Narxlarni (chegarali stavkalar doirasida) pasaytirish yoki kelishilgan narxlardan foydalanish orqali faol marketing siyosatini olib borish.
1.12.	Raqobat pozitsiyalarini tahlil qilish, ustuvor yo'nalishlar, marketing strategiyalarining variantlarini belgilash.
1.13.	Mijozlar bilan munosabatlarni tadqiq qilish va uyg'unlashtirish, xizmat iste'molchilarining rejalariga muvofiq uzoq muddatli rejalar va shartnomalar tuzish.
1.14.	Sotish hajmining sezuvchanligini o'rganish, xizmatlarni sotish sxemasiga ta'sir etuvchi tartibga soluvchi va ishlab chiqarish omillarining umumiy ro'yxatini tuzish.
1.15.	Hisob siyosatining uslubiy tomonini optimallashtirish va soliqlarni minimallashtirish muammolarini hal qilish.
1.15.1.	Amortizatsiya qilinadigan oborotdan tashqari bo'lgan aktivlarning qiymatini uzish usullarini optimallashtirish.
1.15.2.	Shubhali qarzarlar bo'yicha zaxira shakllantirish
1.15.3.	Ish joylarini o'z vaqtida majburiy attestatsiyadan o'tkazish, tegishli mehnat sharoitlariga ta'sir etuvchi omillarni kamaytirish bo'yicha ishlarni olib borish.
1.15.4.	Noishlab chiqarish xarajatlar, MBX saqlash xarajatlari va boshqa xarajatlar ustidan qattiq nazorat o'rnatish.
1.16.	Tashkiliy tuzilmani isloh qilish: <input type="checkbox"/> zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan boshqaruv konseptsiyasini ishlab chiqish; <input type="checkbox"/> aloqa vositalarini rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalash ishlarini tezlashtirish; <input type="checkbox"/> Ishlab chiqarish jarayonlarini kompyuterlashtirish.
2.1.	MHXS bo'yicha moliyaviy audit o'tkazish.
3.1.	Biznes -rejani takomillashtirish, uzoq muddatga biznes-reja ishlab chiqish.



## **5. XAVFSIZLIK TEXNIKASI, MEHNAT MUXOFAZASINI HIMOYA QILISH, POYEZDLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR**

### **5.1. Xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnatni muhofaza qilish**

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat me'yoriy talablari, xodimlarning mehnatni muhofaza qilish talablariga javob beradigan sharoitlarda ishlash huquqi va kafolatlari, ish beruvchi tomonidan xavfsiz sharoitlar bilan ta'minlash va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha huquqlari va majburiyatlari, xodimning mehnatni muhofaza sohasidagi vazifalari Xalqaro Mehnat Tashkilotining O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensyalarni 2014-2016 yillarda amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar doirasida ishlab chiqildi.

Asosiy qoidalar "O'zbekiston temir yo'llari" AJ va O'zbekiston temir yo'lchilar va transport quruvchilari kasaba uyushmasi o'rtasida tuzilgan Tarmoq shartnomasida, shuningdek Jamiyat va kasaba uyushmasi qo'mitasi o'rtasida tuzilgan Jamoa shartnomasida mustahkamlangan.

Dasturni tuzishda jamiyat quyidagi ustuvor vazifalarni hal qilish zaruriyatidan kelib chiqqan holda:

- uskunalarni ishlatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish paytida shikastlanishlarning oldini olish
- sanitariya-gigiyena sharoitlari talablari me'yoriy darajaga yetkazishga imkon beruvchi vositalarini ishlab chiqish va joriy etish
- texnologiyani takomillashtirish
- mehnatni muhofaza qilishni yaxshilashning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy masalalari
- yangi texnika va texnologik jarayonlarni mehnat xavfsizligi nuqtai nazaridan baholash

#### **Texnik xavfsizlik tashkiliy choralari quyidagilar kiradi:**

- xodimlarga xavfsiz ish usullari borasida yo'l-yo'riq ko'rsatish va o'qitish
- himoya vositalaridan foydalanishni o'rgatish
- xavfli operatsiyalarni bajarishda ish va dam olish rejimlarini ishlab chiqish

#### **Texnik chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- texnologik jarayonlarni takomillashtirish
- xavfsiz texnikadan foydalanish
- to'siq va taqiq qiluvchi qurilmalarni o'rnatish
- xavfsiz ish hududlarini aniqlash.



## 5.2. Poyezdlar harakati xavfsizligini va tashiladigan yuklarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora–tadbirlar

“O‘zbekiston temir yo‘llari” boshqaruvi raisi vazifasini bajaruvchi X.N.Xasilovning 2021 yil 04 yanvar kunidagi 1-N-sonli ““O‘TY” AJ temir yo‘llarida Harakat xavfsizligini ta'minlash choralari to‘g‘risida”gi buyrug‘i talablarini bajarish maqsadida, “O‘zvagonta‘mir” AJ va vagon depolari rahbariyati tomonidan yuk vagonlarini ta‘mirlash sifatini yaxshilash, poyezdlar harakati xavfsizligini ta‘minlash, mehnat va texnologik intizom darajasiga rioya qilish va oshirishga qaratilgan olib borilgan ishlar, “O‘zvagonta‘mir”AJ xodimlarining aybi bilan sifatsiz ta‘mirlash tufayli halokat, avariya, baxtsiz hodisalarning ro‘y berishiga yo‘l qo‘ymaslikka imkon berdi.

Shu bilan birga, “O‘zvagonta‘mir” AJ rahbariyati va jamoasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- temir yo‘llarni texnik ekspluatatsiya qilish Qoidalari talablari, harakat va manevr ishlari bo‘yicha Ko‘rsatma, shuningdek yuk va yo‘lovchi vagonlarni, ehtiyot qismlar va uzellarini ta‘mirlash bo‘yicha yo‘riqnomalar talablariga, temir yo‘l transportida meyorlar va talablarni qat‘iy belgilovchi yo‘riqnomalarga va boshqa xujjatlarga qat‘iy rioya qilish;

Temir yo‘llarni texnik ekspluatatsiya qilish Qoidalari talablarini, harakat va manevr ishlari, shuningdek yuk va yo‘lovchi vagonlarni, ehtiyot qismlar va uzellarni ta‘mirlash qoidalari, temir yo‘l transportida me‘yorlar va talablarni tartibga soluvchi yo‘riqnomalar asosida va boshqa hujjatlarni talablarini o‘rganish bo‘yicha vaqti-vaqti bilan bilimlarni sinovdan o‘tkazish yo‘li bilan joylarda texnik mashg‘ulotlar o‘tkazish;

- vagon depolaridagi o‘quv xonalarining zarur ko‘rgazmali qurollar va uslubiy hujjatlar bilan jihozlanganligini nazorat qilish;

- jamiyatning xavfsizligi va halokatsiz ishlash holatini yaxshilashni ta‘minlagan xodimlarni ma‘naviy va moddiy rag‘batlantirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan shakllaridan foydalanish;

- Harakatlanuvchi tarkibni sifatli ta‘mirlashni ta‘minlash;

- Poezdlar harakati xavfsizligini ta‘minlash bilan bog‘liq kadrlarni o‘qitish va malakasini oshirish;

- Harakat xavfsizligi tahlili asosida rejalashtirilgan ta‘mir turlarining ishonchligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rish.